


SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-oktabr *)

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 10 981,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,4 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1477,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 153,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 9504,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 102,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1374,6 mlrd. so'm (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 91,9 %)ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Jomboy, Narpay, Payariq va Samarqand tumanlarida qayd etildi.

*-dastlabki ma'lumot

Chakana savdo tovar aylanmasining o‘shish sur‘atlari, (%)
(2019-yil yanvar-oktabr)





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 53,5 % ga o‘ydi va 1477,6 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,5 % ulushiga to‘g‘ri keldi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 9504,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 2,7 % ga o‘ydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,5 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


2018-yil yanvar-oktabr

2019-yil yanvar-oktabr



Yirik korxonalar
 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlari

**Chakana savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar hamda
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, (%)**
(2019-yil yanvar-oktabr)




Tahlil natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,8 %), Nurobod (99,5 %), Bulung'ur (99,4 %), Qo'shrabot (99,2 %) va Paxtachi (99,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 13,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (36,0 %), Samarqand tumanida (35,0 %) va Pastdarg'om tumanida (5,3 %) kuzatildi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hamda yirik korxonalar
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**
(2019-yil yanvar-oktabr)


Hudud nomi	Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Samarqand viloyati	1 477,6	153,5	9 504,1	102,7
Samarqand shahri	1 131,1	175,4	2 010,1	88,2
Kattaqo'rg'on shahri	0,9	68,6	628,5	107,8
<i>tumanlar:</i>				
Bulung'ur	3,7	-	604,1	105,9
Jomboy	3,6	-	319,2	107,8
Ishtixon	11,9	-	454,1	104,7
Kattaqo'rg'on	5,4	-	455,0	105,5
Narpay	4,3	-	387,7	107,3
Nurobod	2,3	-	418,2	106,2
Oqdaryo	4,4	-	239,5	104,6
Payariq	6,0	-	412,7	106,4
Pastdarg'om	43,3	67,6	781,1	111,3
Paxtachi	3,8	-	380,2	105,7
Samarqand	219,1	90,2	406,9	122,0
Tayloq	3,8	-	312,6	106,0
Urgut	31,3	3,4 m.	1 333,4	105,3
Qo'shrabot	2,7	-	360,8	107,1

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)
(2019-yil yanvar-oktabr)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari chakana savdo tovar aylanmasi hajmi yuqori bo'lgan Samarqand shahri 2010,1 mlrd. so'm, Urgut tumani 1333,4 mlrd. so'm, Pstdarg'om tumani 781,1 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on shahri 628,5 mlrd. so'm, Bulung'ur tumani 604,1 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on tumani 455,0 mlrd. so'm, Ishtixon tumani 454,1 mlrd. so'm va Nurobod tumani 418,2 mlrd. so'mlik hajm bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**Chakana savdo tovar aylanmasida
shahar va tumanlarning ulushi, (%)**
(2019-yil yanvar-oktabr)



2019-yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2868,8 ming. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,2 % ga ko'paydi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahri (7104,4 ming. so'm), Samarqand shahri (5800,8 ming. so'm) va Bulung'ur tumani (3301,8 ming. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Oqdaryo (1557,2 ming. so'm), Tayloq (1601,2 ming. so'm) va Payariq (1700,4 ming. so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

(2019-yil yanvar-oktabr)

Hududlar nomi	Ming. so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Samarqand viloyati	2 868,8	105,2
Samarqand shahri	5 800,8	105,7
Kattaqo'rg'on shahri	7 104,4	106,1
<i>tumanlar:</i>		
Bulung'ur	3 301,8	104,4
Jomboy	1 907,8	106,1
Ishtixon	1 867,0	105,1
Kattaqo'rg'on	1 711,5	104,6
Narpay	1 865,9	106,6
Nurobod	2 841,0	104,6
Oqdaryo	1 557,2	104,5
Payariq	1 700,4	105,6
Pastdarg'om	2 364,2	105,5
Paxtachi	2 698,6	104,7
Samarqand	2 523,0	106,4
Urgut	2 734,5	104,2
Tayloq	1 601,2	105,0
Qo'shrabot	2 811,4	105,6

2019-yilning yanvar-oktabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,2 % ni tashkil etib, 245,5 mlrd. so'mga yetdi, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,3 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 89,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.


**Samarqand viloyatining
ulgurji savdo tovar aylanmasi
(2019-yil yanvar-oktabr*)**

Joriy yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 4456,7 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 6,5 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra 3118,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,4 % ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 70,0 % ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 1338,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,8 % ga o'sdi.


**Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalar hamda
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, (%)**

2018-yil yanvar-oktabr



- Yirik korxonalar
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari

2019-yil yanvar-oktabr



- Yirik korxonalar
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari

*-dastlabki ma'lumot

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
'Tel.:71-230-85-23
66-235-65-80**